

YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 390,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-mart bilan taqqoslaganda 4,1 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	3 890,2	4 390,9	104,1
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 777,1	4 222,1	104,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	113,1	168,8	105,1
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 777,1	4 222,1	104,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 198,5	1 300,9	103,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	736,4	830,0	106,2
	sanoat	318,5	360,1	106,9

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	417,9	469,9	105,7
	Xizmatlar	1 842,2	2 091,2	103,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	481,3	534,6	99,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	244,2	278,2	104,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 116,7	1 278,4	105,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 634,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 30,8 % ni, sanoat tarmog`i 8,5 % ni, qurilish 11,1 % ni va xizmatlar sohasi 49,6 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	97,1	96,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	3,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	31,7	30,8
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	19,5	19,6
	sanoat	8,4	8,5
	qurilish	11,1	11,1
	Xizmatlar	48,8	49,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	12,7	12,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	6,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	29,6	30,3




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,4 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,8 %), sanoatda – 106,9 % (8,5 %), qurilishda – 105,7 % (11,1 %) va xizmatlar sohasida – 103,7 % ni (49,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 99,9 % (12,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,5 % (6,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,1 % dan (30,3 %) iborat bo'ldi.




**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,6 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,1 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)




2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 109,5 % va qurilishda – 106,3 % qayd etildi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,1 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 68,3 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Statistika faoliyatini tashkil etish va
yig'ma axborot tahliliy ishlar bo'limi

Tel.: (76) 225-65-67